

## O‘ZBEK TEATR SAN’ATINING RIVOJLANISH BOSQICHLARIDA BOSHQARUV SAN’ATINING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

**Nurpo‘latova Ozoda Hasan qizi**

O‘zbekiston davlat san’at va madaniyat instituti  
Xalq ijodiyoti fakulteti, MSMTEB ta’lim yo‘nalishi 2-bosqich talabasi

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada o‘zbek teatr san’atining rivojlanish bosqichlari, sohaga ta’sir etuvchi omillar xususida atroflicha fikr-mulohazalar bildirib o‘tilgan. Shuningdek, bugungi o‘zbek teatr san’atida mavjud kamchiliklar va yutuqlar haqida tahliliy yondashuv asosida soha tahlil qilinib, kamchililar yuzasidan takliflar keltirilgan.

**Kalit so‘z:** o‘zbek teatri, professionallik, nutq mahorati, aktyorlik mahorati, estetik zavq, obraz talqini, ijodiy yondashuv

## ОСОБЕННОСТИ РЕЖИССЕРСКОГО ИСКУССТВА НА ЭТАПАХ РАЗВИТИЯ УЗБЕКСКОГО ТЕАТРАЛЬНОГО ИСКУССТВА

**Нурпўлатова Озода Хасан қизи**

Государственный институт искусства и культуры Ўзбекистана  
студентка 2 ступени факультета народного творчества  
МСМТЭБ

**Аннотация:** В данной статье дается подробный обзор этапов развития узбекского театрального искусства, факторов, влияющих на отрасль, и предложения по устранению недостатков.

**Ключевые слова:** узбекский театр, профессионализм, речевые навыки, актерское мастерство, эстетическое наслаждение, интерпретация образа, творческий подход.

## SPECIFIC CHARACTERISTICS OF THE ART OF ADMINISTRATION AT THE DEVELOPMENT STAGES OF UZBEK THEATER ART

Nurpolatova Ozoda Hasan qizi  
State Institute of Art and Culture of Uzbekistan  
2nd stage student of the Faculty of Folk Art, MSMTEB

**Annotation:** This article provides a detailed overview of the stages of development of Uzbek theatrical art, the factors affecting the industry. and suggestions for shortcomings.

**Keywords:** Uzbek theater, professionalism, speech skills, acting skills, aesthetic pleasure, image interpretation, creative approach

Mamlakatimizda teatr san'atini rivojlantirish, uning o'ziga xos an'analarini asrab-avaylash va yanada boyitish borasida keng ko'lamli ishlar amalga oshirilmoqda. Yangi san'at maskanlari qurilib, foydalanishga topshirilmoqda, mavjudlari zamon talablari darajasida ta'mirlanmoqda. Bugungi kunda yurtimizda qirqqa yaqin professional teatr hamda ko'plab xalq teatrlari faoliyat ko'rsatmoqda. O'zbekiston Davlat san'at va madaniyat instituti hamda yigirmadan ortiq o'rta maxsus kasb-hunar kollejida teatr san'ati uchun malakali mutaxassislar tayyorlanmoqda. Sohadagi yangi ijodiy loyihalarni qo'llab-quvvatlash, teatrga umrini bag'ishlagan insonlar mehnatini e'zozlashga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Teatr – madaniyat, ma'naviyat va tarbiya maskanidir. Bugungi globallashuv davrida yosh avlod dunyoqarashi va tafakkurini yuksaltirish, ularni milliy va umumbashariy qadriyatlar ruhida kamol toptirish, xalqimizning boy ma'naviy merosini asrab-avaylash va targ'ib etishda teatr san'ati muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Mazkur soha faoliyatini takomillashtirish va moddiy-texnik bazasini yanada mustahkamlash, iste'dodli, professional kadrlar tayyorlash borasida amalga oshirilayotgan ishlar samarasida yurtimizdagi teatrlar repertuari boyib, badiiy yetuk sahna asarlari yaratilmoqda.

O'zbek Milliy akademik drama teatri, Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Davlat akademik Katta teatri, Muqimiy nomidagi O'zbek davlat musiqali drama teatri, O'zbekiston yoshlar teatri, Respublika yosh tomoshabinlar teatri, Buxoro viloyati qo'g'irchoq teatri, Mannon Uyg'ur nomidagi Surxondaryo viloyati musiqali drama teatri ijodkorlarining spektakllari Hindiston, Misr, Yaponiya, Germaniya, Malayziya kabi davlatlarda bo'lib o'tgan xalqaro teatr festivallarida yuksak e'tirofga sazovor bo'lgani ham buning yorqin dalilidir.[1;75]

“O'zbekiston madaniyati va san'ati forumi” jamg'armasi mamlakatimiz teatr jamoalarini, ilg'or g'oya va loyihalarni qo'llab-quvvatlash, yosh ijodkorlar iqtidorini ro'yobga chiqarish, sohadagi xalqaro hamkorlikni mustahkamlash, milliy teatr sohasida erishilayotgan yutuqlarni keng targ'ib etishga katta hissa qo'shmoqda. Mazkur jamg'arma tomonidan qator ijodiy tashkilotlar bilan hamkorlikda tashkil etilgan “Theatre.UZ” xalqaro teatr festivali ham ana shunday ezgu maqsadga xizmat qilmoqda.

Bugun teatr san'atini rivojlantirish va ijodkorlar uchun qulayliklar yaratish borasida e'tiborga molik ishlar amalga oshirilmoqda. Ammo shunga qaramay, teatrlarimizda adabiy tilga bo'lgan e'tibor susayib borayotganday nazarimda.

Muhtaram Prezidentimiz Shavkat Mirziyoevning 2020 yil 26 maydagi “Madaniyat va san'at sohasining jamiyat hayotidagi o'rni va ta'sirini yanada oshirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi Farmoni madaniyat va san'at sohasida katta ahamiyat kasb etdi. Madaniyat va san'atning hamma sohalarini qamrab olgan bu me'yoriy hujjatda respublikamizda faoliyat yuritayotgan teatrlarni yanada rivojlantirish borasidagi dolzarb islohotlar belgilanganligi birorta ham teatrshunos mutaxassislarni befarq qoldirmadi.[2]

Darhaqiqat, bugun teatr san'atini rivojlantirish va ijodkorlar uchun qulayliklar yaratish borasida e'tiborga molik ishlar amalga oshirilmoqda. Ammo shunga qaramay, teatrlarimizda adabiy tilga bo'lgan e'tibor susayib borayotganday

nazarimda. Aktyorlarning nutqida sheva alomatlari hanuz mavjudligi, nutq texnikasidagi kamchiliklar, sahnada partnyorlarning bir-birini eshitmasligi, quruq emotsional nutqdan nariga o'tolmayotgani kishini ranjitadi. Teatrlardagi bunday holatlarga barham berish uchun nima qilishimiz kerak?

2019 yil 21 oktyabr kuni O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “O'zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeini tubdan oshirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi Farmoni qabul qilindi.

Vazirlar Mahkamasida Davlat tilini rivojlantirish departamenti hamda Madaniyat vazirligida Davlat tilini rivojlantirish bo'yicha maslahatchi shtatining tashkil etilishi hammani birday quvontiradi. Demak, ona tilimizga bo'lgan e'tibor yanada kuchaytirildi. Hozirgi kunda teatrlarda sahna nutqning nufuzini ko'tarish eng dolzarb masalalardan biridir. Zero, bu jarayon o'zbek adabiy tilimizning qudratini yanada oshirishga katta ta'sir qiladi.[3] Avvalo aktyorlarning sahna nutqi ustidagi ish jarayonlari haqida to'xtalsam. Sahna nutqining go'zal bo'lishi dramaturgiyaga bog'liq. 1939 yilda To'xtasin Jalilov, Sobir Abdulla va Mamadali Haydarovlar “Tohir va Zuhra” musiqali dramasi ustida bir oy tinimsiz ishlaganlar. Rejissyor M. Haydarov obrazlarning tiliga nihoyatda katta ahamiyat berar edi. Har bir sahnaga hech bo'lmaganda bittadan ariya yozishni talab qilgan paytida, avvalo ariyaning so'zlariga quloq tutar edi. “Har bitta sahnaga yozilgan ariya uzukka ko'z qo'ygandek bo'lishi shart, ariyadagi har bir so'zning toshi bo'lsin”, degan fikrni takrorlayverardi. Spektakl` ustida ishlanayotgan paytda har bir sahnaning nomi ariyalar bilan atalgan bo'lib, S. Abdulla so'zlarga mas'uliyat bilan e'tibor bergan. Bunga “Suv kelar axta...”, “ey quyosh...” kabi sahnalarni misol qilib aytishim mumkin. Xorazm sahnasida xorazmga shevasiga xos bo'lgan ohangda aytiladigan ariyadan foydalangan. Bu uchlik bir-biri bilan so'z va uning sahnadagi ifodalanishi ustida shunaqangi tortishib ishlaganlarki, ularning bilimdonligiga, so'zga bo'lgan hurmatiga hammaning xavasi kelar edi. O'z navbatida bu hol

boshqalarga ham namuna bo'lgan. Asar tili masalasi hal qilingach, keyin aktyorlarga rol` ko'chirishga ruxsat berilar edi.[4;68]

Ustozimiz Nosir Otaboev rejissurasidagi eng noyob narsa tilga, nutqqa jiddiy e'tibor qaranganligi edi. Bunday deyishimning boisi, u kishi o'zbek adabiy tilining bilimdoni bo'lgan. Ayniqsa, "Baxtli gadolar" komediyasining instsenirovkasi ustida ishlash jarayonida Shahobiddin Nizomiddinov, O'zbekiston xalq artisti Jaloliddin Oxunov bilan har bir so'zga, jummalarga sinchkovlik bilan yondashardi. Aktyorlar ham tushunmagan so'zining ma'nosini chaqib, keyin gapirishga odatlangan edi. Bu jarayonlarda qalami o'tkir, teatrning adabiy emakdoshi, O'zbekiston xalq artisti YAhyoxon Mamatxonovning ham o'rni juda katta bo'lgan. Zunnun Madaminov, Jo'ra Boboev, Holmat Ikromovlar xarakter yaratishda etakchi aktyorlar sifatida rollarni nihoyatda tabiiy ijro qilishga harakat qilar edi. Ularning nutqi ham chiroyli bo'lgan. Sahnaga chiqib, behudaga gapirganini hech ko'rmaganman.

"O'tgan kunlar" spektaklidagi ijrolar-chi? Bu haqda juda ko'p gapirish mumkin. 1972 yilda Toshkentga ijodiy safarga borganimizda bir hafta davomida bu spektakl` anshlag bo'lgan. O'zbekiston xalq artistlari Murodjon Ahmedov, Isroilxon Sultonov, Yorqinoy Hotamova, Mavluda Shomurodavalilar o'ynagan sahnalar tarixga muhrlangan. Ularning nutqi ravon, ovozlari juda chiroyli, sahnada ularni ko'rgan tomoshabin sevib qolar edi. Kumush rolini o'ynagan Yorqinoy Hotamovaning ovozi juda ta'sirchan, samimiy, rolni yurakdan ijro qilgan. Asli quvalik bo'lgan Isroilxon Sultonov Otabek rolini qiyomiga etkazib o'ynagan. Tomoshabin ularning ichki hissiyotlari bilan birga yashar, go'zal ovozlari eshitib to'ymas edi, desam mubolag'a bo'lmaydi.

Teatr tarixida aktyorlik san'ati borasida katta maktab qoldirgan ustoz san'atkorlarni hozirgi ba'zi aktyorlar bilmagani uchun ham har qanday gapni gapirib ketaveradi. Tilimizning hurmatini joyiga qo'ymaydi. So'zlarni qadrlamaydi. Men hozirgacha sahna nutqiga ahamiyat berish, so'zlarning tub ma'nosini yaxshi anglash

lozimligini, aktyorlardan qattiq talab qilishga harakat qilaman. Aytganingizdek, hozir bu masalaga jiddiy e'tibor bermasak bo'lmaydi. SHoshma-shosharlikka sira yo'l qo'ymasligimiz, zamon tezlashib ketdi, deb spektaklning sifatiga putur etkazmasligimiz kerak. Axir shuncha harakatlar jonajon xalqimiz uchun qilinadi-ku!

Shu o'rinda bir narsani ta'kidlab o'tmoqchiman, hali biz rejissyorlar o'zbek dramaturgiyasida yaratilgan asarlardan unumli foydalanganimizcha yo'q. Turob To'la, O'lmas Umarbekov, Abdulla Qahhor, Said Ahmad, Shukrullo, Sharof Boshbekov kabi adiblarimiz asarlariga murojaat qilishdan to'xtamasligimiz kerak.

Shuningdek, 2015 yilda Britaniya Kengashining O'zbekistondagi vakolatxonasi ko'magida amalga oshirilgan loyiha dasturi doirasida "Globus" teatrining ijodiy safari O'zbekistonda ham o'tkazildi. Spektakl O'zbek Milliy akademik teatrida ham namoyish qilindi.[5;72]

Bu spektaklni ko'rish jarayonida "Globus" teatri rejissyori Maykl Kerriga bir savol bilan murojaat qildim: "Angliya teatri sahnasida adabiy tilga e'tibor berish holati qanaqa? Rejissyorlar aktyorlardan tilga bo'lgan e'tiborni talab qiladimi yoki yo'qmi?" Mening asl maqsadim, bu savol orqali adabiy tilga e'tibor qanchalik muhim ekanligini talabalarga ham bildirish edi. Maykl Kerri miyig'ida kulib, "Men uchun iliq savol berdingiz. Dunyoda uch ming xildan ortiq til mavjud. Bu tilning sheva (dialekt)larini ham hisobga oladigan bo'lsak, er yuzidagi tillarning umumiy soni besh mingdan ham ortib ketsa kerak. Shulardan mukammal va ulug' tillar juda ham ko'p emas. Shuningdek, sahnada bir asar bir necha tillarda ijro etilishi mumkin. Lekin bu ijro mukammal tilda bo'lishi kerak. Albatta, men birinchi navbatda aktyorlardan toza ingliz tilini talab qilaman. Masalan, haqiqiy irlandiya tilining qanaqaligini faqat teatrga kelib, aktyorning nutqi va ovoz intonatsiyalarini tinglash orqali bilish mumkin. Men o'zbek tilini juda boy til, deb hisoblayman. O'zbek tilining o'ziga xos xususiyatlarini o'z qulog'im bilan eshitgim keladi. ertaga teatringizga borib spektakl ko'raman, o'zbek tilini jonli eshitaman. Bu men uchun juda qiziq va katta baxt.



O'zbek tilini eshitishning o'zi men uchun orzu bo'lgan edi. Hayotda hamma har xil shevada gapirib ketaveradi. Jamiyatni faqat teatrgina haqiqiy tilga o'rgatadi. Aslida professional sahna nutqi orqali millat tilining xususiyatini aytish aktyordan, eshitib rohatlanish tomoshabindan. Teatr aslida shuning uchun kerak!”, dedi. Maykning bu fikri hammaga yoqdi, tinglovchilarda g'urur ham paydo qildi, ular o'rinlaridan turib qarsak chalib yuborishdi.

Bu holat millat tilini saqlash, aktyor nutqida uni jaranglatish qanchalar muhim narsa. Shaxsan men sizni aynan sahna nutqi bo'yicha tadqiqot olib borayotganingizdan juda xursandman. Teatrimizda tarix uchun yoziladigan jarayonlar juda ko'p. Ulug' aktyorlarning jamiyat rivoji uchun qilgan xizmatlarini o'rganib, hozirgi kunda ham xalqimiz xohlagan spektakllarni sahnalashtirsak arziydi. Bunga qurbimiz ham etadi. Tomoshabinlarni teatrga qiziqtirishni ko'proq o'ylashimiz kerak.

Menimcha, tomoshabin yengil-yelpi shoularga, bo'lar-bo'lmas tomosha ko'rsatayotgan guruhlar orqasidan ergashib ketmoqda. Ba'zida bu guruhlarning sahnadan turib millatimiz sha'niga to'g'ri kelmaydigan behayo qiliqlariyu o'zbek tili obro'siga putur etkazadigan gaplarini eshitib, qochishga joy topolmay qolasan kishi. Kechagina institutning aktyorlik yo'nalishini, hattoki magistratura mutaxassisligini bitirgan yoshlarimiz bugun ana shunaqa guruhlarda bachkana qiliqlar bilan band bo'lib yurganini ko'rib achinib ham ketasan. Bu ham etmagandan ularning bachkana “manera”lari professional teatr aktyorlarida takrorlanishi ajablanarli hol. Menimcha, tomosha va spektakllar ilmiy yondashuvlarga, tahlillarga muhtoj. Teatrshunoslar, san'atshunoslar jarayonlarni kuzatib borishi, tanqidiy fikrlarini ommaviy axborot vositalarida yoki muhokamalarda o'z vaqtida aytishi zarur.

Hech bir millat o'zining madaniyatiga, ma'naviyatiga befarq bo'lmasligi kerak. Teatr bu shunchaki tomosha emas. Teatr – millatning ma'naviyatini yuksaltiruvchi maskan.

Bugun afsuski, teatrga bo'lgan e'tibor quvonarli emas. Sohadagi muammolar o'z yechimini kutmoqda. Eng birinchi navbatda odamlarda teatrga borish madaniyati yo'qolib boryapti. Vaholanki, teatr o'zining jonli ekani bilan boshqa san'atlardan ajralib turadi. Jonli san'atning qadri tushib ketgani shu sohaning odami sifatida meni doim o'ylantiradi.

Ulug' jadid bobomiz Mahmudxo'ja Behbudiy bejizga "Teatr bu ibratxonadir", deb aytmaganlar. Bugun odamlar ibrat oladigan maskandan uzoqlashayotgani juda og'riqli muammo.

Hatto ziyolilar ham teatrlarda qo'yilayotgan yangi spektakllar haqida bilishmaydi. Teatr san'at sifatida tobora "koma" holatiga tushib bormoqda.

Taklifim, holatni yaxshilashni avvalo maktablardan boshlash zarur. Teatr haqida darslar o'tilishi kerak deb o'ylayman. Maktab tomonidan har oyda bir marta o'quvchilarni teatrga ekskursiyaga olib borish ham bolalarda bu san'atga bo'lgan qiziqishni oshiradi. Xuddi shu tajribani oliy ta'lim muassasalariga ham qo'llasa bo'ladi.

Telekanallar orqali teatr targ'iboti ham samarali yo'l deb o'ylayman. Eng ko'p ko'riladigan ko'rsatuvlarning aksariyatida asosan teatr aktyor va aktrisalari ishtirok etadi, lekin ular faoliyat ko'rsatadigan teatrlar haqida ko'rsatuvlar deyarli yo'q.

Teatrda kadrlar masalasi ham yildan-yilga katta muammoga aylanib borayotgani achinarli hol. Chunki bu sohadagi moddiy ahvol bugungi kun uchun qoniqarli emas. Teatrda ishlaydigan insonlar esa oila boqish, hayot kechirish uchun ishdan tashqari yaxshiroq daromad topsa bo'ladigan yumushlar bilan shug'ullanishga majbur bo'lishyapti. Bunda ularni ayblab bo'lmaydi. Chunki fidoyilik boshqa, oila tashvishlari boshqa.

Teatrdagi eng asosiy figura hisoblanmish rejissyor kasb sifatida e'tirof etilmagan. Buni qanday tushunish mumkin? Axir asarni yaratadigan insonlar teatr rejissyorlari-ku. Shu muammo ijodiy ish uchun to'lanadigan gonorar masalasida



bevosita ko‘rinadi. Spektakl uchun asar yozgan muallif, sahna rassomi, libos rassomi, bastakor, aktyor ijodiy ishi uchun gonorar oladi. Lekin shu asarni sahnalashtirgan rejissyor o‘z mehnati uchun gonorar olmaydi. Bu muammo uzoq yillardan beri yechilmay keladi.

Qolaversa, teatrlarning moddiy-texnik bazasi ham zamon talablariga javob bermaydi. Bizdagi sahna chiroqlari jahon teatrlari urfidan qolib bo‘lgan. Ko‘pgina viloyat teatrlarida zalni isitish tizimida muammo bor. Bu, ayniqsa, qish mavsumida ko‘pgina noqulayliklarni keltirib chiqaradi.

Teatr sohasida muammolar ko‘p, ularning yechimi uzoq yillardan beri hal qilinmay kelyapti. Bu haqda ko‘p gapirish mumkin. Shu sohada faoliyat olib boryapman, bu muammolarga befarq qarab tura olmayman. Umid qilamanki, bu muammolar hal bo‘ladi. Xalqimiz uchun durdonaga aylanadigan spektakllar yaratamiz. Ammo eng avval xalqimizda bu durdonaga ehtiyoj paydo bo‘lmog‘i kerak.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Rizayev O. Teatr va adabiy meros. // “Teatr”, 2007 yil, 6-son;
2. Shavkat Mirziyoevning 2020 yil 26 maydagi “Madaniyat va san’at sohasining jamiyat hayotidagi o‘rni va ta’sirini yanada oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmoni;
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeini tubdan oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmoni, 2019 yil 21 oktyabr;
4. Rizayev O. Milliy nasrimizning sahna talqinlari. // “Teatr”, 2012 yil, 3-son.
5. Shaxsma’naviyatini shakllantirishida san’at va madaniyatning roli Respublika ilmiy-nazariy va amaliy konferensiya materiallari. – T: “Navro‘z”, 2014;

6. Teatr va kino san'ati ta'limi: muammo va yechimlar – Respublika ilmiy-amaliy ijodiy konferensi Materiallari to'plami. – 20 noyabr 2015, T: “Lesson Press”;
7. Elektron resurs: Umid Yoqubov. Sahna zaldan baland.// [www.uza.uz](http://www.uza.uz) 2014.